

NORMUROD NORQOBILOVNING “QORA QUYUN” ASARIDA IJODKOR ILGARI SURGAN ASOSIY MOTIVLAR.

Jalolova Barchinoy Botir qizi

Toshkent Davlat O‘zbek tili va adabiyoti univesiteti

Adabiyot nazariyasi yo‘nalishi magistranti

barchinoybotirovna8017@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezis orqali ijodkorning “Qora quyun” asarida tasvirlangan obrazlar ketma ketligi, asosiy motivlar tasviri, ularning asarga qo‘shgan ma‘no hissasi, obrazlarning badiiy va metodologik tahlilini yoritib beriladi. Asardagi obrazlar ziddiyati, to‘qnashuvlari tahlil qilingan.

Абстрактный. Посредством данного тезиса будет освещена последовательность образов, изображенных в произведении художника «Черный заяц», описание основных мотивов, их вклад в смысл произведения, а также художественно-методический анализ образов. Анализируются конфликты и противоречия образов в произведении.

Abstract. Through this thesis, the sequence of images depicted in the artist's work "Qora quyun", the description of the main motives, their contribution to the meaning of the work, and the artistic and methodological analysis of the images will be highlighted. Conflicts and conflicts of images in the work are analyzed **Key words:** image, analysis of images, image of a dog, myths, folklore, Hadith Sharif, Ashobi Kafh.

Kalit so‘zlar: motiv , obrazlar, ziddiyat, metodologiya, tahlil, Qora quyun, Erman, Oybekach, Itolmas.

Ключевые слова: мотивы, образ, конфликты, методология, анализ, , Qora quyun, Erman, Oybekach, Itolmas.

Key words: motives, image, conflicts, methodology, analysis, , Qora quyun, Erman, Oybekach, Itolmas.

Har bir inson yashashi davomida hayotning past balandliklariga duch keladi, bulardan qutulish uchun esa motivlardan foydalanishga urinadi. Motiv tushunchasi aslida shaxsni harakat va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo‘luvchi ichki turtki hisoblanadi. Badiiy asarlarda motiv tushunchasi uning asl ma‘nosidan biroz farqli bo‘lib, asarning ajralmaydigan mavzusi motiv deb ataladi. Motivlar har mavzuda, har so‘zda ham bo‘lishi mumkin deydi B.V.Tomashevskiy⁴⁵

Motivlar va obrazlar badiiy asar syujetini yanada boy qiluvchi vozsitalar hisoblanadi. Normurod Norqobilovning ushbu romnida ham oila tinchligi, farovonligi motivi, erkak burchi sadoqati motivi va bir qancha obrazlar mavjud. Inson zoti

⁴⁵ B.V.Tomashevskiy, “Adabiyot nazariyasi.Poetika” asari

yaralibdiki, bir biri bilan ma'lum munosabatga kirishmay yashay olmaydi. Shunday munosabatlardan biri – qarindoshlik hisoblanadi. Barcha xalqlar, elatlar qadimdan qarindoshlik rishtalariga katta e'tibor qaratib kelishgan. Qarindoshlik rishtalari eng mustahkam bo'lgan qism – oiladir. Oila tinch – Yurt tinch. Oilaning tinchligi Yurting tinchligiga tenglashtirish orqali oilaning insonlar hayotida naqadar muhim rol o'ynashi yoritib berilgan. Oila, asosan, yangi avlod yetishtirishda eng tamal bosqish hisoblanadi. Qadimdan bola tarbiyasi, uning yetuk insin bo'lib shakllanishi uchun oiladagi muhit, sharoit eng muhim jihatlardan biri hisoblangan.

Albatta, oila muqaddas va unga vafo eng muhim tuyg'ulardan biri. Oilaning tayanchi erkak bo'lsa, ustuni ayoldir. Ular o'rtasidagi mehr, vafo esa oilaning mustahkam bo'lishini ta'minlaydi. Har bir narsaning ziddini ko'rsatish orqali yaxshini yomondan, oqni qoradan va aksincha yommonni yaxshidan, qorani oqdan ayrit eta olinadi. Itolmas va unin ikki turmushi to'lqonli xolisona yoritiladi. Oila oila bo'lishi uchun undagi hamma baxtli bo'lishi lozim. Itolmas oilasida esa vaziyat butunlay boshqa hamma majburlikdan yashaydixotinni orzulab qoladi. Uch nafar farzandi bo'lishiga qaramay baxtni ikkinchi ayolda deb o'ylagan Itolmas ikkinchisida ham baxtni topolmaydi. Qarabsizki ko'ngli uchinchi xotinni istab qoladi. Toki ikkinchi ayolining o'liga qarad uning qadrini bilmaydi. Bunday insonlar har doim hamma joya topiladi. Aslida baxt bittasini sevish, sevilish farzandlarni tarbiyash ekanini anglashmaydi bu toifa kishilar.

Jahondagi aytarli har bir xalq, el va millatning o'ziga xos fe'l-atvori, asosiy fazilatini ifodalaydigan so'z, istiloh va timsollari bo'ladi. Er kishi, erkak, mard, askar, bahodir, himmatli, ilohiy fayz va xosiyat sohibi, rahnamo kabi o'nlab ma'nolarda qo'llanib kelingan er va eran kalimasi turkiy xalqlar tili va tarixida shunday mavqega egadir.

Obrazlar tahlilini Qora quyundan boshlasak. Qora quyun xalq tabiri bilan aytganda “zuvalasi pishiq” zotdor it avlodidan bo'lib, uning uzoq ajdodi Olarit bo'ri naslidan bo'ladi. Olarit kuchli va bahaybat ko'rinishidan bo'rini eslatuvchi it. Uning harakatlarini ko'rgan odan shu ondayoq uning oddiy it emasligini ilg'aydi. Qora quyun ham shaklan ham aqlan ham hiisan ajdodi Olarit kabi edi. Ularni ajratuvchi yagona farq Olarit erkin edi. Qirlar osha yugurgancha ov qilar dushmanlari bilan kurashar edi. Oddiy itlar kabi egasining qo'lga qarab yotmas, o'z yemishini o'zi ovlardi. Qora quyun esa bularning baridan mustasno ixcham g'ul eshigidan bir bora chiqolmagan asir edi.

Erman obraziga kelsak ikki xil insonni ko'ramiz qullikdan avvalgi Erman va qullikdan keying Erman. Ikki Erman bir biridan nihoyatda farqli, birisi dovyurak, mehribon, oqibatli bo'lsa ikkinchisi qasoskor, mehr shafqatdan yiroq xalq tili bilan aytganda “diydası qotgan” edi. Birinchi Ermandagi hamma ijobiy hislatlar qullikdan

so'ng o'rnini zidlariga alishtirib bergandi. Qullik Ermanning qalbini quritib,diydasini qotirgan edi. Qullik Ermanning mehrini shimib olib, Qahrini shochib yuborgan edi. Erman tamoman boshqa edi. Qullikdan qutulib kelgan Ermanga qavmdoshlarining unga o'lik muomulasini qilishini hech kutmagandi. Hayolida hozir qutulub borsa qavmdoshlari oilasi uni quchoq ochib kutib olishi. Otasi, onasi akasi Qalaybek ko'zlarida yosh bilan uning tirikligi shodligidan ko'zlari jiqqa yosh bo'lishi lozim edi. Biroq unday bo'lmadi.

Oybekach obrazi haqiqiy mard, jasur ayollar motivi hisoblanadi. Uning ko'zlaridagi chaqnashni butun ovul yigitlari qalban his qilishadi. Yozuvchi ham asarda davomida Oybekachni boshqa qizlar bilan, Ermanning sevgilisi Moychechak bilansolishtirishga urinadi ammo, eplay olmaydi. Yozuvchi uning mardligi, aqlliligini tariflar ekan” Oybekach bir ovul boshqara oluvchi ayol edi”-deydi. Bu ham yozuvchining o'z hayolidagi muammal ayol obrazini Oybekach misolda tasvirlab berganini ko'rsatadi.

Asarni o'qish davomida kitobxon turli to'qnashuvlar xarakte o'zgarishlariga uchraydi. Asar kishini o'z davriga olib ketadi. Yaxshini ham yomonni ham ko'z oldimizga tashlaydi,xulosa qilinadigan bir qancha taqdirlarni ko'radi kishi. Ermanning fojiasi, Oybekachning mardligi, bularning barchasi insonni hushyorlikka mehr oqibatni, qalbni va iymonni butun asrashga undaydi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. B.V.Tomashevskiy, “Adabiyot nazariyasi.Poetika” asari.
2. Dilmurod Quronov,”Adabiyot nazariyasi asoslari” 2018,T.
3. I. Sulton,”Adabiyot nazariyasi”, Toshkent, 1980.
4. <http://www.ziyouz.com>
5. <http://www.wikipedia.org>